

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD03/30.12.2021.P.26.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

SHAMSHETOVA ANJIM KARAMADDINOVNA

**OROLBO'YI MINTAQASI AHOLISIGA IJTIMOY-PSIXOLOGIK XIZMAT
KO'RSATISH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTASIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Psixologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
психологических наук (DSc)**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of
Psychological Sciences (DSc)**

Shamshetova Anjim Karamaddinovna

Orolbo‘yi mintaqasi aholisiga ijtimoiy-psixologik xizmat ko‘rsatish faoliyatini
takomillashtirish 3

Шамшетова Анжим Карамаддиновна

Совершенствование деятельности социально-психологической службы для
населения региона Приаралья29

Shamshetova Anjim Karamaddinovna

Improving the activities of the socio-psychological service for the population of the Aral
Sea region59

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 64

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD03/30.12.2021.P.26.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

SHAMSHETOVA ANJIM KARAMADDINOVNA

**OROLBO'YI MINTAQASI AHOLISIGA IJTIMOY-PSIXOLOGIK XIZMAT
KO'RSATISH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTASIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.DSc/P106 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.psi-ik.uz) va «Ziyonet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: **Abdullayeva Barno Sayfutdinovna**
Psixologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Qodirov Umarali Do‘stqobilovich**
psixologiya fanlari doktori, professor

Shamsiyev O‘ktam Baxriddinovich
psixologiya fanlari doktori, dotsent

Akramov Mirmuxsin Rustamovich
psixologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD03/30.12.2021.P.26.02 raqamli bir martalik Ilmiy kengashning 2023 yil «_____» kuni soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel: (+99871) 276-82-32; faks (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro‘yxatga olingan) (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel: (+99871) 276-82-32)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil « ___ » _____ kuni tarqatildi.

(2023 yil « ___ » _____ dagi ___ raqamli reestr bayonnomasi).

F.A.Akramova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, psixologiya fanlari
doktori, dotsent

N.B.Atabaeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash kotibi, psixologiya fanlari
doktori, dotsent

Z.T.Nishanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
psixologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda inson umri va salomatligiga ta'sir ko'rsatadigan turli omillar orasida ekologik muammolarning ijtimoiy-psixologik xarakterda namoyon bo'lishi tobora avj olayotgani tufayli aholi tarkibidagi shaxsning jamiyat hayotida o'z o'rniga ega emaslik, ijtimoiy jamiyatdan begonalashuv, o'z ijtimoiy mavqeini topa olmaslik, izolyasiya, tushkunlik, ichki ruhiy bezovtalik kabi salbiy holatlarni yuzaga kelishi, inson hayoti sifati, mazmuniga ta'sir etishi muammosini dolzarblashtiradi. YUNESKO tashkiloti qoshidagi Xalqaro psixologiya fanlari ittifoqi – IUPsyS (International Union of Psychological Science)¹ tomonidan 2019-2024 yillarga mo'ljallangan psixologik xizmat konsepsiyasida shaxsga qaratilgan tadqiqotlarni o'rganish bugungi kunda alohida e'tibor talab etib belgilab berilganligi ahamiyatlidir. Jumladan, Orolbo'yi xududlarida yashovchi aholiga ijtimoiy-psixologik xizmat ko'rsatishda shaxs ijtimoiylashuviga ko'rsatadigan ta'sirini aniqlash, aholiga psixologik xizmat ko'rsatishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini ishlab chiqish va takomillashtirish muammosini dolzarblashtiradi hamda jamiyat taraqqiyoti uchun ilmiy tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida tabiat bilan inson o'rtasidagi munosabatlar nihoyatda keskinlashib borishi natijasida shaxsning hayoti va xududiy istiqboliga xavf-xatar tug'dirishi, tabiiy ofatlar va ekologik muammolarning ko'payishi tufayli ayrim hududlarda aholining ma'lum qismida ertangi kunga ishonchsizlikning yuzaga kelishi, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotiga ta'siriga doir ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, Orolbo'yi xududlarida yashovchi aholi psixologiyasiga ta'sir ko'rsatadigan turli ekologik, ijtimoiy-demografik, tibbiy omillarni xududlar kesimida tizimli ravishda o'rganish, ekologik muammolarning globallasuvi har bir insonning tabiatga to'g'ri munosabatini rivojlantirish, o'ziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini hisobga olish orqali ekopsixologik bilimni shakllantirish, psixologik xizmat faoliyatini takomillashtirishga yo'naltirilgan masalalarga e'tibor qaratish zaruratini ko'rsatmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda Orolbo'yi mintaqasi hududlarida yuzaga kelgan ekologik vaziyat xalokatli ekanligi sababli nafaqat tibbiy, iqtisodiy, ijtimoiy-demografik muammo sifatida emas, balki uning aholisiga ijtimoiy-psixologik xizmat ko'rsatish faoliyatini taqozo etadigan, o'ta dolzarb muammo sifatida e'tirof etildi, uning zarur xuquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi: «...Biz BMT tomonidan Orol fojiasidan jabr ko'rgan aholiga amaliy yordam ko'rsatish bo'yicha shu yil qabul qilingan maxsus dastur to'liq amalga oshirilishi tarafdorimiz...»², «Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovasiyalar va texnologiyalar xududi, deb e'lon qilish to'g'risidagi maxsus rezolyusiya qabul qilinishi»³ qaratilgan strategik vazifalar belgilanib, xudud aholiga ijtimoiy-psixologik xizmat ko'rsatishni rivojlantirish hamda

¹ <https://www.iupsys.net/> UPsyS Statement on Conflict in Eastern Europe.

² <https://www.uzavtoyul.uz/cy/post/ozbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyoyev-bmt-bosh-assambleyasining-72sessiyasida-nutq-sozladi.html>

³ <https://www.xabar.uz/jamiyat/sessiyadagi-nutq>

takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan yangicha nazariy yechimlarni topish uchun mustahkam asos yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», 2017 yil 21 apreldagi PF-5024-son «Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida», 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son «O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonlar, 2017-yil 18-yanvardagi PQ-2731-son «2017-2021-yillarda Orolbo‘yi mintaqasini rivojlantirish davlat dasturi to‘g‘risida», O‘z.R.VMsining 2022-yil 25-yanvardagi 41-sonli «Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovasiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi» Qarorlar hamda faoliyatga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko‘lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertasiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertasiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi⁴.

Ekologik muammolar va ularning inson psixologiyasiga ta‘sirini o‘rganish masalasiga doir ilmiy izlanishlar ustuvor yo‘nalishlardan biridir, jumladan, Kaliforniya universiteti (AQSH) atrof-muhit va inson salomatligi, (CEQA) va atrof-muhit bilan bog‘liq qonunlarni, barcha loyihalar ishlab chiqilishi, Stenford universiteti (AQSH) tabiiy o‘zgarishlar bilan birgalikda inson faoliyati natijasida yuzaga keladigan murakkab ekologik muammolarni o‘rganib borishi, Manchester universiteti (Buyuk Britaniya) inson farovonligi va xavfsizligi tahdid soladigan global iqlim inqirozi bo‘yicha strategik loyihalarni ishlab chiqishi, Vuppertal universiteti (Germaniya) inson qadr-qimmatini himoya qilish ilmiy loyihalari, Avstraliyaning Melburn universitetida “Atrof-muhit psixologiyasi (ekopsixologiya)” yo‘nalishidagi ilmiy ishlarni olib borishi, Italiyaning Trento universiteti “Inson xatti-harakatlarining murakkabligi va psixologik xizmat ko‘rsatish” yo‘nalishlari, shuningdek, Xalqaro Psixologiya Fanlari Akademiyasi (Rossiya Federasiyasi), Rossiya psixologik xizmat ko‘rsatish Fyederal resurs markazi (Rossiya Federasiyasi), Rossiya fanlar akademiyasi huzuridagi Psixologiya ilmiy-tadqiqot instituti (Rossiya Federasiyasi), Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti (Rossiya Federasiyasi)da ta‘lim tizimi va ijtimoiy institutlarda mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlar o‘tkazilmoqda.

4 Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar Xalqaro psixologiya fanlari akademiyasi (MAPN) (<http://rusacademedu.ru>), Ta‘lim tizimida psixologik xizmat ko‘rsatish Rossiya federal resurs markazi (<http://www.mapn.su/>), AQShning Stanford University (URL:<https://www.stanford.edu>), Buyuk Britaniyaning University of Manchester (<https://manchester.ac.uk>), Germaniyaning Bergische Universität (www.uni-wuppertal.de), Avstraliyaning University of Melbourne (URL:<https://www.unimelb.edu.au>), Italiyaning Trento of universities (URL:<https://www.unitn.it>), R.F.A huzuridagi psixologiya ilmiy-tadqiqot instituti (URL:<https://www.pirao.ru>), Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti (URL:<https://www.msu.ru>) kabi jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalarida olib borilgan hamda dissertatsiya mavzusiga doir ishlanmalar yaratilgan.

Jahonda aholiga psixologik xizmatning ijtimoiy-psixologik muammolarini aniqlash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: 1853 yilda Texas universiteti, Kaliforniya universitetida "Orolbo'yi mintaqasi xaritasi", Orol dengizi holatidagi o'zgarishlar xronologiyasi (UNYEP/GRID-Arendal) holatini aks ettirilgan ma'ruzalari, ekologik muammolarning inson salomatligiga ta'sir ko'rsatishiga oid ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan (AQSH); inson farovonligi va xavfsizligi tahdid soladigan global iqlim inqirozi bo'yicha strategik loyihalar amalga oshirilgan, Vuppertal universiteti (Germaniya); ijtimoiy targ'ibot dasturlari orqali atrof muhitning inson salomatligiga ta'siri masalalari targ'ib qilinib, ekopsixologik savodxonlik ishlari olib borilgan, Melburn universiteti (Avstraliya); inson xatti-harakatlarining murakkabligi va ijtimoiy rivojlanish xususiyatiga doir psixologik xizmat ko'rsatish ishlari olib borilgan (Trento universiteti, Italiya); ta'lim va tarbiya maskanlarining vakolatli ta'sirini insonni ruhiy rivojlantirishga xizmat qilishi zarurati aniqlangan, Xalqaro Psixologiya Fanlari Akademiyasi (Rossiya Federasiyasi); shaxslararo munosabatlar hamda shaxsni rivojlantirishning dasturiy tizimi raqamli texnologiyalar vositasida yaratilgan (M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Rossiya Federasiyasi).

Jahonda tadqiqotimiz mavzusiga doir muammolar bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda, jumladan, Jahon Meteorologiya Tashkiloti "Orol dengizi yaqinida turgan odamlar", Mo'ynoq, O'zbekiston, 2001 yildagi EROS ma'lumotlar markazi direktori Maykl Kreyn va Djennifer Boyexnert va M.Jarro tomonidan o'rganilishi, "Suv resurslarini integrasiyalashgan holda boshqarish" loyihasi (NATO tinchlik uchun ilm-fan dasturining grant SFP 974357), "Orol dengizini qutqarish" haqida Sankt-Peterburgdagi Rossiya Fanlar Akademiyasi Zoologiya instituti professori Nikolay Aladin, USAID loyihasi, Niderlandiya, Belgiya va Rossiya ilmiy markazlarida O.F.Vasilev, P.O.Zavyalov, N.V.Aladinni ilmiy tadqiqotlari, AQSH xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) Orol dengizining qurigan tubida (ERAS) ekotizimni tiklash loyihalarida mazkur ekologik muammolarga ko'mak ko'rsatish, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston davlatlararo "Orolbo'yi muammolarini hal qilish bo'yicha va mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi" konsepsiyasi (1993) ishlab chiqilib, ijtimoiy-ekopsixologik jihatdan takomillashtirish kabilar shular jumlasidandir.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Orolbo'yi mintaqasida mavjud bir qator muammolarni o'rganish, ekologik falokati oqibatlarini yumshatishga doir ilmiy izlanishlar hamda ekologik muommolarni bartaraf etish bo'yicha investisiya loyihalar ularni o'z vaqtida samarali ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar olib borilgan.

O'zbekistonda psixolog olimlardan M.R.Akramov tomonidan shaxsda ekologik ong shakllanishining psixologik mexanizmlariga oid ilmiy tadqiqot ishlari tadqiq qilgan bo'lsa, psixologik xizmatni tashkil etishning turli jihatlarini esa R.A.Abdurasulov, F.A.Akramova, Sh.R.Barotov, D.Sh.Barotova, M.G.Davletshin, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, N.G.Kamilova, Z.T.Nishonova, A.I.Rasulov,

B.M.Umarov, O'.B.Shamsiyev, U.D.Qodirovlar tomonidan ilmiy tadqiq etilgan⁵. Olib borilgan izlanishlar respublikamizda psixologik xizmat muammosini ilmiy-amaliy o'rganish dastavval ta'lim tizimi uchun amalga oshirilgan, keyinchalik ijtimoiy maskanlardan mahalla, sog'liqni saqlash tizimi, oilaviy psixologik xizmat faoliyati samaradorligini oshirish masalalari tadqiq etilgan, lekin Orolbo'yi mintaqasidagi aholiga psixologik xizmat ko'rsatish ya'ni atrof-muhit tabiatiga bog'liq psixologik xizmat alohida ijtimoiy psixologik muammo sifatida o'rganilmagan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligidan V.I.Panov, S.D.Deryabo, V.A.Yasvin, V.I.Medvedev, A.A.Aldasheva Sterligova E.A va boshqalar tomonidan ekologik muammolarni psixologik o'rganish, ekologik ong diagnostikasini ta'minlash bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan⁶.

Xorij psixolog olimlaridan Dj.Gibson⁷, R.Barker, G P.Stern⁸, O.D.Duncan, T.Cassidy, R.Gifford, va boshqalar "Environmental Psychology" atrof-muhit psixologiyasiga oid ilmiy-amaliy ishlari tadqiq etilgan.

Dissertasiya mavzusining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlar bilan bog'liqligi. Dissertasion tadqiqot Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining OT-F1-126 raqamli «O'zbekiston yoshlarida psixologik yetuklik ko'rsatkichlarini o'rganishning psixodiagnostika vositalarini ishlab chiqish, ilmiy asoslash va amaliyotga tadbiq etish» mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan (2017-2021 y.y.).

Tadqiqotning maqsadi Orolbo'yi mintaqasi aholisiga psixologik xizmat ko'rsatishining ilmiy-amaliy asoslari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Orolbo'yi aholisi shaxslararo munosabatlariga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni turli mezonlarga muvofiq differensiallashtirish;

⁵ Akramov M.R. Shaxsda ekologik ong shakllanishining psixologik mexanizmlari /psixologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyasi/ Toshkent – 2022 yil 230-bet.; Abdurasulov R.A. Oilaviy tarbiyadagi nuqsonlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari //O'zbekistonda psixologik xizmatning dolzarb muammolari.-Resp.ilmiy-amal.anjum.ma'ruz.qisq. bayoni. - T., 2015. 36-39 b.; Akramova F.A. O'zbekistonda oilaviy psixologik xizmatning ijtimoiy-psixologik muammolari. 19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya. Psixologiya fanlari doktori (Dss) dissertatsiyasi, – Toshkent: 2022, - 277 b. Barotov Sh.R. Psixologik xizmat: Magistrlar uchun darslik. –T.: «Navro'z» nashriyoti, 2018. - 344 b.; Barotova D.Sh. Aholining turli qatlamlariga psixologik xizmat ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlari // Psixologiya. 2016. - № 2 . - B. 73-77.; Davletshin M.G., Shoumarov G'.B. Zamonaviy o'zbek oilasi va uning psixologik xususiyatlari //«O'zbek oilasining etnopsixologik muammolari» mavzuidagi Respublika ilmiy amaliy anjumani ma'ruzalarining qisqacha bayoni. – Toshkent, 1993. –B. 109 -111., Karimova V.M. Yoshlarida o'zbek oilasi to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlar shakllanishi: Psixol. fan. d-ri. ... dis.: 19.00.05 – Farg'ona: FarDU, 1994. – 310 b.; Kamilova N.G. Favqulodda vaziyatlarda tezkor psixologik yordam – insonning psixologik va fiziologik farovonligini saqlash asosi. //PEDAGOGIKA. - 2021. - № 4. - B. 16-21.; Nishanova Z.T. Psixologik xizmat: O'quv qo'llanma. T.: Yangi yul Poligraph service, 2007. – 158 b.; Umarov B.M. Psixologik xizmatning ijtimoiy-psixologik muammolari //O'zbekistonda psixologik xizmatning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani konferensiya materiallari to'plami. Toshkent, 2015. – B. 224–227.; O'.B.Shamsiyev. "Oilaviy xolding – bola ijtimoiylashuvining psixologik mexanizmi": monografiya //«Toshkent kimyo-texnologiya instituti». Tashkent: Navro'z, 2018. 124 s.; Shoumarov G'.B., Qodirov U.D. Oilaga psixologik yordam ko'rsatish. T.: «Akademnashr»– 2013 yil. -72 b.

⁶ Дерябо С.Д. Экологическая психология: диагностика экологического сознания.М:1999.304с , Панов В.И. Введение в экологическую психологию: /Учебное пособие.- М.2006.184с

⁷ Gibson J.J.The ecological approach to visual perception.Psychology Press Classic Editions/New York and London.2015

⁸ Stern, P. Psychology and the science of human-environment interaction. 2000.

Orolbo'yida istiqomat qiluvchi uyushmagan yoshlar, oilali shaxslar guruhlariga kiruvchilarning atrof-muhit ekologiyasiga bo'lgan munosabati integrasiyalashuvida «mas'uliyatlilik xususiyatlari»ni aniqlash;

Orolbo'yida istiqomat qiluvchi shaxslar uchun xarakterli bo'lgan emosional xolati namoyon bo'lishida ijtimoiy muhitga moslashishning regulyativ funksiyasini ustuvor omil ekanligini empirik jihatdan dalillash;

Orolbo'yi aholisiga psixologik xizmat ko'rsatish tizimining ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini shaxs tayanch e'tiqodlaridan «sog'lom xavfsizlik hissi»ning kognitiv jihatiga ustuvorlik berish asosida takomillashtirish;

Orolbo'yi aholisiga ekopsixologik shakllanishga integrativ ta'sir etuvchi differensial yondashuvni kiritish asosida psixologik xizmat ko'rsatishning kompleks modelini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obekti sifatida Orolbo'yi mintaqasi aholisiga psixologik xizmat ko'rsatish jarayoni olingan bo'lib, Nukus shaxri, Muynoq, Kungrad, Kegeyli, Chimboy, Beruniy va Turtkul tumanlari aholisidan 323 nafar uyushmagan yoshlar hamda 295 nafar oilali shaxslar, jami 618 nafar respondentlar tadqiqotga jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini Orolbo'yi mintaqasi aholisiga psixologik xizmat ko'rsatishning ijtimoiy-psixologik omillari, turli mezonlari, ijtimoiy-psixologik imkoniyatlari, asosiy motivlari, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari: Tadqiqot jarayonida suhbat, kuzatish, anketa, metodlaridan, shuningdek, mualliflik «Psixologik yordamga ehtiyoj» so'rovnomasi, Yanov-Bulmanning «Tayanch e'tiqodlar shkalasi» so'rovnomasi, D.A.Leontyevning «Hayot mohiyati» metodikasi, G.U.Soldatova va S.V.Rijovalarning «Etnik identivlik tiplari» metodikasi, Riks-Uyessmanning «O'zini-o'zi hissiy baholash ko'rsatkichlarini aniqlash» metodikasi, K.N.Tomasning «Nizoli vaziyatlarga munosabatni o'rganish» metodikasidan foydalanildi. Olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi matematik statistika metodlaridan: Styudentning t-mezone, K.Pirsonning r-korrelyasiya koeffitsiyenti, faktorli tahlil orqali tasdiqlandi. Zamonaviy ijtimoiy fanlardagi tadqiqotlarda qo'llaniladigan SPSS dasturidan foydalanib, chastotali tahlil qilindi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

Orolbo'yi aholisidagi shaxslararo munosabatlarga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar «inson-tabiat» munosabatlaridagi o'zaro identifikasiyaning ustuvor xarakterga ega ekanligi barqaror ekopsixologik integrasiyani ta'minlashi tufayli «maqsad-jarayon-natija», «Men-hayot-hayotni anglaganlik» mezonlariga muvofiq differensiallashtirilgan;

Orolbo'yida istiqomat qiluvchi aholi qatlamlaridan uyushmagan yoshlar, oilalilar shaxslararo munosabatlari «nizoli vaziyatlarni hal etish»da atrof-muhit ekologiyasiga bog'liq munosabatlar integrasiyalashuvi tufayli «mas'uliyatlilik xususiyatlari»ni ijtimoiy-psixologik omil sifatida differensial namoyon bo'lishi isbotlangan;

Orolbo'yida istiqomat qiluvchi shaxslarning o'zini-o'zi hissiy baholashida xotirjamlikning sub'yektiv ong darajasida hissiy ko'tarinkilik, o'ziga ishonchni yuqoriligi bilan ijobiy bog'lanishlarga ega ekanligi tufayli emosional holatni namoyon

bo'lishi ijtimoiy muhitga moslashishning regulyativ funksiyasi sifatida ustuvor omil ekanligi dalillangan;

Orolbo'yi aholisiga psixologik xizmat ko'rsatishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari «inson-tabiati-inson» munosabatlari tizimida ijtimoiy adolat mezonining representasiyalanishi hamda shaxsiy «Men»ning o'z-o'zini qadrlash, o'z-o'zini nazorat qilish, «omadli inson» konstruktlariga pozitiv yondashuv nuqtai nazaridan refleksiv rivojlanishiga korreksion ta'sir etish muhimligi tufayli shaxs tayanch e'tiqodlaridan «sog'lom xavfsizlik hissi»ning kognitiv jihatiga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

Orolbo'yi aholisiga psixologik xizmat ko'rsatishning kompleks modeli shaxs ekologik ongini «antroposentrik» darajadan «inson-tabiati» tizimini uyg'un rivojlanishiga olib keladigan «ekosentrik» va «sinergetik» darajaga transformasiyalanishi muhimligi tufayli ekopsixologik shakllanishga integrativ ta'sir etuvchi differensial yondashuvni kiritish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Orolbo'yi mintaqasida ekologik falokat oqibatlarini yumshatishga doir ilmiy izlanishlarni olib borishda, ekologik muammolarni bartaraf etish samaradorligini oshirish maqsadida hududlarda psixologik xizmat ko'rsatish optimallashtirilgan;

Orolbo'yi mintaqasida ekologik tanglik holatini to'g'ri psixologik tahlil qilish tizimi yaratilgan;

Tadqiqotda ilk marotaba Orolbo'yi aholisini hayotdan qoniqish saviyasi aniqlanib, ularning umuman tabiatga va atrofidagi ekologik muammolariga bo'lgan munosabatlari psixologik tahlil qilingan;

Orolbo'yi aholisining kelajakga bo'lgan munosabatida yosh va jins xususiyatlarini farqlari, ekologik muammolarning oilaviy hayotga ta'siri qiyosiy tahlil etilib, ularga ijtimoiy-psixologik ko'mak beruvchi amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Orolbo'yi aholisining ijtimoiy-psixologik muammolarini bartaraf etish bo'yicha ekologik ta'limni psixologik yondashuvlar bilan boyitishga yo'naltirilgan psixologik xizmatga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Orolbo'yi aholisini ijtimoiy-psixologik muammolarini bartaraf etishda psixoprofilaktik, psixodiagnostik va psixokorreksion xizmat turlarini kompleks qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertasion izlanish natijalarining ishonchliligi unda ilmiy jihatdan asoslangan, xalqaro miqyosda tan olingan metodik vositalar, matematik-statistikaning aniq metodlari qo'llangani, sinaluvchilar tanlanma to'plamining hajmi va uning representativligi, empirik izlanishlar nazariy chuqur asoslab berilgani, aniqlangan ko'rsatkichlarning boshqa mualliflar taqdim etgan ma'lumotlar bilan qiyosiy tahlil etilib, bunda ishonchli manbalarga asoslanganligi, empirik natijalarning maqsadga muvofiq tahlil qilinganligi, natijalar "Mc Excel", "SPSS 22.0" dasturlari vositasida qayta ishlanganligi; asosiy olingan natijalar keng ilmiy jamoatchilik o'rtasida muhokama qilingani hamda vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Orolbo'yi aholisi uchun psixologik xizmatni amalga oshirish

mexanizmlari sifatida aholining turli guruhlarida shaxslilik sifatleri bilan bog‘liq omillarning namoyon etilishiga ko‘ra, Orolbo‘yida istiqomat qiluvchi shaxslar uchun ekologik, psixologik, emosional-irodaviy, etnik identivlik xususiyatlariga ta’siri yoritib berilganligi, ilmiy xulosalardan ijtimoiy va kognitiv psixologiya yo‘nalishlaridagi tadqiqotlarda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Dissertasiya natijalarining amaliy ahamiyati ishdagi nazariy umumlashma va tahlillardan psixologik xizmatning o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik samaradorligini tadqiq qiluvchi metodikalardan Orolbo‘yi aholisi bilan olib boriladigan psixologik va profilaktik ishlar yo‘nalishini aniqlashtirishda, ilmiy asoslangan psixologik xizmat tizimini tashkil etishda, «Ijtimoiy psixologiya», «Psixogigiena», «Psixologik korreksiya va psixologik maslahat» fanlaridan o‘quv qo‘llanma, darsliklar tayyorlashda, psixologik lug‘atlarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Orolbo‘yi mintaqasi aholisiga ijtimoiy-psixologik xizmat ko‘rsatish faoliyatini takomillashtirish yuzasidan o‘tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

Orolbo‘yi aholisiga psixologik xizmat ko‘rsatishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari «inson-tabiati-inson» munosabatlari tizimida ijtimoiy adolat mezonining reprezentatsiyalanishi hamda shaxsiy «Men»ning o‘z-o‘zini qadrlash, o‘z-o‘zini nazorat qilish, «omadli inson» konstruktligiga pozitiv yondashuv nuqtai nazaridan refleksiv rivojlanishiga korreksion ta’sir etish muhimligi tufayli shaxs tayanch e’tiqodlaridan «sog‘lom xavfsizlik hissi»ning kognitiv jihatiga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilganligiga oid xulosalar Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2023-yil 5-iyuldagi PM-28-sonli buyrug‘i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2023-yil 6-iyuldagi PM28-M-son ma’lumotnomasi). Natijada Orolbo‘yi aholisiga psixologik xizmat ko‘rsatishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari takomillashtirishga erishilgan;

Orolbo‘yida istiqomat qiluvchi aholi qatlamlari (uyushmagan yoshlar, oilalilar)ning shaxslararo munosabatlariga «nizoli vaziyatlarni hal etish»da atrof-muhit ekologiyasiga bog‘liq munosabatlar integratsiyalashuvi tufayli «mas’uliyatlilik xususiyatlari»ni ijtimoiy-psixologik omil sifatida differensial namoyon bo‘lishi isbotlanganligiga oid xulosalar Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2023-yil 5-iyuldagi PM-28-sonli buyrug‘i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2023-yil 6-iyuldagi PM28-M-son ma’lumotnomasi). Natijada Orolbo‘yi aholisidagi shaxslararo munosabatlarga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlashga erishilgan;

Orolbo‘yida istiqomat qiluvchi shaxslarning o‘zini-o‘zi hissiy baholashida xotirjamlikning sub’ektiv ong darajasida hissiy ko‘tarinkilik, o‘ziga ishonchni yuqoriligi bilan ijobiy bog‘lanishlarga ega ekanligi tufayli emotsional holatni namoyon bo‘lishi ijtimoiy muhitga moslashishning regulyativ funksiyasi sifatida ustuvor omil ekanligi dalillanganligiga doir ma’lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2023-yil 5-iyuldagi PM-28-sonli

buyrug‘i bilan «Psixogigiena» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2023-yil 6-iyuldagi PM28-M-son ma‘lumotnomasi). Natijada Orolbo‘yida istiqomat qiluvchi shaxslarning emotsional holatni namoyon bo‘lishi ijtimoiy muhitga moslashishning regulyativ funksiyalari ochib berilgan.

Orolbo‘yida istiqomat qiluvchi aholi qatlamlari (uyushmagan yoshlar, oilalilar)ining shaxslararo munosabatlariga «nizoli vaziyatlarni hal etish»da atrof-muhit ekologiyasiga bog‘liq munosabatlar integratsiyalashuvi tufayli «mas‘uliyatlilik xususiyatlari»ni ijtimoiy-psixologik omil sifatida differensial namoyon bo‘lishi isbotlanganligiga oid takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2023-yil 5-iyuldagi PM-28-sonli buyrug‘i bilan «Psixologik korreksiya va psixologik maslahat» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2023-yil 6-iyuldagi PM28-M-son ma‘lumotnomasi). Natijada Orolbo‘yida istiqomat qiluvchi aholi qatlamlari ijtimoiy-psixologik omillarni namoyon bo‘lish darajalari ochib berilgan;

Orolbo‘yi aholisiga psixologik xizmat ko‘rsatishning kompleks modeli shaxs ekologik ongini «antroposentrik» darajadan «inson-tabiati» tizimini uyg‘un rivojlanishiga olib keladigan «ekosentrik» va «sinergetik» darajaga transformatsiyalanishi muhimligi tufayli ekopsixologik shakllanishga integrativ ta’sir etuvchi differensial yondashuvni kiritish asosda takomillashtirilganligiga oid takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2023-yil 5-iyuldagi PM-28-sonli buyrug‘i bilan «Ontogenez psixologiyasi» va «Psixogigiena» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2023-yil 6-iyuldagi PM28-M-son ma‘lumotnomasi). Natijada Orolbo‘yi aholisiga psixologik xizmat ko‘rsatishning kompleks tizim tuzilmasi orqali ularning ekologik ongini rivojlantirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotasiyasi. Tadqiqot natijalari 10 ta respublika va 4 ta xalqaro ilmiy konferensiyalarda muhokama etilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqotning asosiy natijalari bo‘yicha 1 ta monografiya, 12 ta ilmiy maqola O‘zbekiston Respublikasi OAK tavsiya etgan jurnallarda, shu jumladan 4 tasi xorijiy jurnallarida, 2 tasi ingliz tilida chop etilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalari materiallari to‘plamida o‘z aksini topgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya kirish, to‘rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy xajmi 206 betni tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertasiya mavzusining dolzarbligi, zarurati, maqsadi, vazifalari, ob‘yekti va predmeti rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning

ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, ilmiy nashrlarda e'lon qilinishi, dissertasion tadqiqotning tuzilishi to'g'risidagi ma'lumot keltirilgan.


Dissertasiyaning **“Orolbo‘yi mintaqasi aholisining ijtimoiy-psixologik muammolarining ilmiy nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida Orolbo‘yi xududlaridagi ekologik muammolarning o‘rganilishining zarurati va dolzarbligi, Orolbo‘yi muammolari va global ekologik muammolarning psixologik o‘rganilganligi va Orolbo‘yi mintaqasi aholisining etnopsixologik xususiyatlari atroflicha yoritilgan. Jumladan, Orolbo‘yi mintaqasidagi ekologik vaziyatning tobora keskinlashib, umumsayyoraviy ekologik muammoga aylanib borayotganligi, ijtimoiy rivojlanish jarayoniga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi va mazkur vaziyatni nazorat qilish hamda boshqarishning insoniyat kelajagi uchun muhim ahamiyatga egaligi mazkur muammoning dolzarbligi va Orolbo‘yi mintaqasidagi ekologik muammolarga oid ko‘plab ilmiy loyihalar, ilmiy tadqiqot ishlari olib borilayotganligi bayon etilgan.

Ekologik muhitni tushunish, mavjud muammolarning oldini olish chora-tadbirlari va antropogen ekologik tahdidlarning o‘shishini tartibga solishi hamda psixologik tahlilini o‘tkazishga oid ilmiy izlanishlarni Dj.Gibsonning “Vizual idrok etishga ekologik yondashuv”, S.D.Deryabo, V.I.Panov, V.I.Medvedev, A.A.Aldasheva va boshqalar "Ekologik psixologiyaga kirish", Britain A. Scott, Elise L.Amel, Susan M. Koger, Christiye M.Manning va boshqa psixolog olimlarning “Barqarorlik uchun psixologiya” nomli ilmiy tadqiqot ishlarining tahlili berilgan.

Dissertasiyaning **“Orolbo‘yi aholisining ijtimoiy psixologik xususiyatlarini tadqiq qilish usublari”** deb nomlangan ikkinchi bobda tadqiqot uchun tanlangan metodikalarning mohiyati va samarasini ta'minlaydigan asosiy jihatlari keltirilgan, aholi uchun psixologik xizmat turlarini tizimli tashkil etish va u nazariy ilmiy metodologiya bilan boyitilishi maqsadida ilmiy tadqiqot ishlari hamda adabiyotlar o‘rganilib, tahlil etilgan.

Tadqiqot respondentlari dastlabki bosqichlarida kuzatuv va suhbat usullaridan samarali foydalanilgan. Respondentlardan aniq va to‘liq ma‘lumot olish uchun aholining yashash shart-sharoitlari va xududi ekologiyasiga bog‘liqligiga e‘tibor qaratildi. Kuzatuvlar natijasi aholining yashash tarzi, shart-sharoitlari atrof-muhit ekologiyasiga moslashuvchanligi va tabiatiga bo‘lgan xatti-harakatlari umumiy tarzda aholida mavjud muammolarni aniqlashtirildi. Suhbat jarayonlarida respondentlarning psixologik xizmat to‘g‘risida tasavvurlari, psixolog mutaxassislariga murojaat qilganligi, aholining psixologik xizmatni tashkil etishga bo‘lgan munosabatlari o‘rganildi.

Dissertasiyaning navbatdagi paragrafida Orolbo‘yida istiqomat qilayotgan aholining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tadqiqot muammosi sifatida o‘rganilganligi tahlil qilingan. Dastlab biz tadqiqotimiz maqsadidan kelib chiqib tanlangan Yanov-Bulmanning “Tayanch e‘tiqodlar” metodikasi bo‘yicha respondentlardan olingan dastlabki statistik natijalar tahlilini keltiramiz, 1-rasmga qarang.



1-rasm. Yanov-Bulman uslubi bo'yicha "Tayanch e'tiqodlar" shkalasi ko'rsatkichlari

Tadqiqot Yanov-Bulmanning «Tayanch e'tiqodlar» metodikasi bo'yicha deyarli barcha shkalalari bo'yicha ishonch darajadagi farqlar mavjudligini ko'rsatdi. Bundan ko'rinadiki, tayanch e'tiqodlarning shakllanishiga shaxslarning yoshi, ijtimoiy ahvoli ham ta'sir ko'rsatar ekan. Insonlarning yaxshiligiga ($t=4,251$; $p>0,001$) ishonish tayanch e'tiqod shkalasi oilali shaxslarda yuqoriligini ko'rsatdi, ya'ni oilali shaxslar insonlar har doim yaxshilik qiladi deb ko'proq ishonchshar ekan, yoshlar esa bunga shubha bilan qarashlari ma'lum bo'ldi. Yuqoridagi rasmdan ko'rinib turibdiki, hayotning odilligi tayanch e'tiqod shkalasiga ham oilali shaxslar uyushmagan yoshlarga nisbatan ko'proq ishonishar ekan ($t=2,998$; $p>0,01$). Uyushmagan yoshlarda bu holatga nisbatan o'z shubha gumonlari mavjudligi qayd qilindi. Yoshlarda bu ko'rsatkich past bo'lishi o'ziga va boshqalarga ishonchmasligini bildiradi. Yuqoridagi dalillardan shu narsa ko'rinadiki, agar shaxs ijtimoiy jarayonlarda qanchalik ko'p faol bo'lsa, ularning tayanch e'tiqodlari shunchalik sobit bo'ladi, aksincha ijtimoiy munosabatlarda nisbatan kam faol bo'lgan shaxslar e'tiqodida sust munosabatlar shakllanishi mumkin ekanligi namoyon bo'ldi.

Tadqiqotda qo'llanilgan D.A.Leontyevning "Hayot mohiyati" metodikasi bo'yicha olingan dastlabki natijalar tahlilidan ko'rinadiki, oilali shaxslar guruhida "Maqsad" subshkalasi (33,5833), "Natija" subshkalasi (27,0833), "Hayot" subshkalasi (32,6667) hamda "Hayotni anglaganlik (147,7500)" umumiy ko'rsatkichi uyushmagan yoshlarga nisbatan yuqori ekanligi kuzatildi.

Uyushmagan yoshlarda esa "Jarayon" subshkalasi (33,7) va "Men" subshkalasi (23,1) yuqori ekanligi qayd etildi. Bu shundan daolat beradiki, mazkur respondentlar guruhida hayot kechishini qiziqarli, hissiy jo'shqin hamda mazmun-mohiyatga ega deb hisoblay olish, bugungi kuni bilan qoniqib yashaydigan gedonistik ruhiyatga (gedonistik - bu hayotdan hamma narsani olishga intiladigan odam) moyil bo'lishi, hayotidagi voqealarni o'zi nazorat qila olishiga ishonmaslik kabi shaxslilik, egoistik sifatlari yuqori ekanligi aniqlandi.

**“Hayot mohiyati” metodikasi orqali olingan
umumiy natijalar tahlili, n=618**

Omillar	Respondentlar	O‘rtacha qiymat	Standart og‘ish
“Maqsad” subshkalasi	1	30,2	5,8
	2	33,5	6,1
“Jarayon” subshkalasi	1	33,7	5,7
	2	29,3	5,1
“Natija” subshkalasi	1	23,6	4,1
	2	27	3
“Men” subshkalasi	1	23,1	2,8
	2	19,6	3,9
“Hayot” subshkalasi	1	27,8	4,7
	2	32,6	5,2
“Hayotni anglaganlik” umumiy ko‘rsatkichi	1	130,6	19
	2	147,7	19,2

izoh: 1 – Uyushmagan yoshlar; 2 - Oialali shaxslar

Tadqiqotda G.U.Soldatova, S.V.Rijovalar tomondan ishlab chiqilgan “Etnik identivlik tiplari” usulidan foydalanildi, natijalar 2-jadvalda berilgan.

**Tadqiqot va nazorat guruhlarining etnik identivlik tiplari foiz ko‘rsatkichi
(N=618)**

%	egoizm	izolyatsiya	Fanatizm	Me‘yor	indeffer	nigilizm
Nazorat guruhi	58	53	45	71	48	43
Tadqiqot guruhi	55	49	42	68	46	40

Jadvaldan ko‘rib turganimizdek, nazorat guruhi respondentlarining etnoegoizm, etnoizolyasiya, etnofanatizm, etnoindefferentlik ko‘rsatkichlari tadqiqot guruhidan yuqori darajada namoyon bo‘ldi. Identivlik ko‘rsatkichi shaxslarning milliy, etnik guruhga tegishliligini his qilishi va shu hissiyot asosida madaniyatlararo munosabatlarga kirishishini bildiradi.

Respondentlar o‘z milliy madaniyatini, turli xil ta’sirga berilayotgan etnik xususiyatga ega munosabatlari ya’ni uyushmagan yoshlar aksariyati Qozog‘iston, Rossiya Federasiyasi davlatlariga borib ishlaganida milliy tili, fikrlashiga ta’siri ostida qolishini belgiladi. Respondentlarda etnik identivlikning me‘yor, me‘yordan oshib ketish, me‘yorga yetmaslik darajalari bilan belgilanadi. Me‘yorda shakllangan etnik identivlik ijobiy hisoblanadi. Ularda me‘yordan oshib ketishi etnik identivlik etnofanatizmni holatini ko‘rsatdi, bu oilali yoshi katta bo‘lgan shaxslar hisoblanadi. Bu

ular da milliy ayrim xususiyatlari o'rniga boshqa turdosh xalq illatlari bilan bo'lgayotganligi xavotirga soladi. Respondentlardan yoshlarda me'yorga yetmagan ko'rsatkich yuqori ya'ni etnonigilizm ko'rsatkichini ko'rsatib turibdi. Bu o'z navbatida uyushmagan yoshlarda shaxslilik, egoistik sifatlari yuqori ekanligini ko'rsatadi. Bu tadqiqot usulida ham boshqa ijtimoiy muhitni qidirishi, o'z etnik mansubligidan uzoqlashish kabi xususiyatlar belgilandi. Uyushmagan yoshlar orasida yana bir muhim dalilni inobatga olish zarurki, respondentlarda etnik indefferentlik ya'ni etnik mansublikning dolzarb emasligi, etnik identivlik chegaralari e'tibor bermaslik holati ham ma'lum bo'ldi.

Nazorat va tadqiqot guruhlarida o'z millatiga va o'zga millatlarga ijobiy munosabatning uyg'unligi boshqa ko'rsatkichlarga nisbatan yaxshi baholandi. Dastlab nazorat guruhlarida etnoizolyasiya o'z millati afzalligiga ishonishi, aralash nikohlarga salbiy munosabat bildirishi namoyon bo'lgan. Orolbo'yi xududlari yashovchi qoraqalpoq millatiga xos etnik xususiyatlaridan biri o'z yaqin qarindoshidan bo'lgan shaxslar bir-biri bilan turmush qurishmaydi, bu alohida ularning etnik xususiyati hisoblanadi. Buni keyingi etnik identivlik tiplarining biri etnosentrizm namoyon bo'lishi yuqoriligi bilan belgilandi. Etnosentrizmning namoyon bo'lishi barcha xalqlar va davrlar uchun xos bo'lgan xususiyatdir. Undan butunlay qutulishning iloji yo'q. Chunki "biz – hammadan zo'rmiz", degan tushuncha insonlarga bu dunyoda yashashga yordam beradi va ularga u yoki bu madaniyatga tegishlilik tuyg'usini baxsh etadi. Shaxs hamma vaqt o'z milliy jamoasi, o'z guruhi vakillarini qo'llab-quvvatlaydi va ularga intiladi. Etnik tegishlilik (identivlik) tuyg'usi faxr va yana boshqa hislar bilan birga ifodalanadi. Respondentlarda etnik identivlik tiplarida yashash xududi uning tabiiy resurslaridan tortib millatning o'ziga xos xususiyatlarini himoyalashi namoyon bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Ammo shunisi aniqki, etnosentrizmning yaqqol namunasi samarali etnomadaniy kompetentlikning shakllanishi uchun jiddiy to'siq hisoblanadi.

Tadqiqot va nazorat guruhlarining ko'rsatkichlari o'rganilganda, Etnoindefferentlik tipi, ya'ni o'z etnik mansubligidan chetga chiqib ketish, akkulturasiyaga (lat. Acculturare-madaniyatlarning o'zaro ta'siri jarayoni, madaniy xususiyatlar almashinuvi), xos bo'lgan xislatlarni namoyon bo'lishi, bilingvallik va monolingvallik (Ikki tillilik va bir tillilik) mezoniga bog'liq emasligi namoyon bo'ldi. Ya'ni farqning ahamiyati 0.703 da ahamiyatsizligi aniqlandi.

3-jadval

Tadqiqot obyektlaridan etnik identivlik tiplari farqining statistik ahamiyati Manni-Uitni va Vilkokson mezonida baholanishi (N=618)

	Egoizm	Izolyatsiya	Fanatizm	Indifferentlik	Identivlik	Nigilizm
U-test	9149	7005	7515	1144	1240	1243
Wilk.	1715	1500	1551	1942	1625	1805
Z qiymat	-3,30	-6,04	-5,40	-3,82	-3,25	-1,16
Aham.	0,001	0,000	0,000	0,703	0,001	0,243

Etnik identivlik, etnoegoizm, etnofanatizm, etnoizolyasiya ko‘rinishlari guruhlarda farqlanishi ahamiyatli deb topildi. Etnonigilizm esa, kuchsiz ahamiyatni ko‘rsatdi. Ya’ni bu xususiyatning namoyon bo‘lishi shaxsning ikki tilliligiga bog‘liq emasligi isbotlandi. Demak, Orolbo‘yi aholisining etnik tiplari identivligini, ularning milliy xususiyatlari, etnik ongi, milliy xususiyatlari, individual psixologik xususiyatlarini ilmiy jihatdan o‘rganish o‘z o‘rnida boshqa tadqiqotlarni ham o‘ziga jalb qiladi.

Dissertasiyaning uchinchi bobi **“Orolbo‘yi mintaqasi aholisiga ijtimoiy-psixologik xizmatni tashkil etish ehtiyojlari, holati va imkoniyatlarining empirik o‘rganish”** deb nomlangan hamda mazkur bobda Orolbo‘yi mintaqasidagi aholining psixologik xizmat muammolari bo‘yicha murojaat etganlik holatlarini empirik natijalari, Orolbo‘yi mintaqasidagi aholining psixologik xizmatga bo‘lgan ehtiyojlari va unga sabab bo‘luvchi omillar tahlili va Orolbo‘yi mintaqasidagi aholiga psixologik xizmat ko‘rsatish tizimi holatining empirik tahlili berilgan.

Mahalliy aholining psixologik xizmatga bo‘lgan ehtiyojlarini tadqiq etishdan oldin dastlab, tasavvurlarini ham aniqlashga e’tibor qaratildi. Orolbo‘yi mintaqasidagi aholining psixologik xizmatga bo‘lgan murojaatlarini o‘rganish bo‘yicha so‘rovnoma o‘tkazildi, natijalar 4-jadvalda berilgan.

Respondentlarning psixologik xizmat xususidagi tasavvurlari chastotali tahlil bo‘yicha natijalarida o‘ziga xos holat kuzatildi. Uyushmagan yoshlar aholining asosiy qatlamlaridan biri sanaladi. Ularning psixologik xizmat to‘g‘risidagi tasavvurlari haqidagi savolga bergan javoblarida 323 nafaridan 52,02% ko‘tarilgan muammo to‘g‘risida tasavvurga ega ekanliklari aniqlandi. Bu uyushmagan yoshlarning umumta’lim maktabi va kasb-hunar maktablarida tahsil olgan vaqtlaridagi maktabdagi amaliy psixologlar faoliyatidan tanish ekanliklari bilan bog‘liqdir. Ular maktabdagi psixolog faoliyati bilan bog‘liq muhit psixologik xizmatga taassurot uyg‘otgan bo‘lishi mumkin.

Psixologik xizmat haqida tasavvurga ega, ammo uning mohiyati nimadan iborat ekanligi haqidagi mulohaza bildirishga tayyor bo‘lmaganlar 23,84% va umuman bu haqida yetarlicha tasavvurga ega bo‘lmaganlar esa 24,14% tashkil etdi.

Aholining oilali vakillari tomonidan so‘rovnomaga bildirilgan munosabatlarda esa 27,79 % psixologik xizmat masalalari haqida tasavvurga ega ekanliklari kuzatildi. Ularning ma’lumotga egaligiga ta’lim muassasalarida psixolog faoliyati mavjudligi, ijtimoiy tarmoqlarda psixologlarning e’lonlaridan xabardorliklari, o‘z navbatida ruhiy muammolarni yechimini topish bo‘yicha shaxsiy izlanishlari ham bunga sabab bo‘lgan deyish mumkin. Aholining oilali vakillarining 17,28 % psixologik xizmat to‘g‘risida tasavvurga egaligi, ammo uning mohiyati haqida mulohaza bildirishga tayyor emasliklari bilan bog‘liqdir. Aholining 54,81 % psixologik xizmat masalasi haqida tasavvurga ega emasligini bildirganlar.

O‘z navbatida psixologiyaning keng tarmoqli mutaxassis ekanligini aholi orasida ham dastlabki munosabatlar mavjud ekanligi yuqoridagi empirik ko‘rsatkichlardan ham anglash mumkin. Ayrim hollarda o‘zida uzoq ruhiy bosimni his etsa-da, oilaviy nizolar sababli qadriyatlarini paymol etmaslik uchun (qishloq hududlarida) ruhiy bosimlarni boshdan kechirayotganlar orasida sabr-toqat qilayotganlar talaygina. Ushbu

holatlar psixologik xizmat masalasiga murojaat qilish bilan bog‘liq holatni hududiy jihatlarini 5-jadvalda empirik ko‘rsatkichlarga ko‘ra talqin etiladi.

4-jadval

Aholining psixologik xizmat to‘g‘risidagi tasavvurlari (chastotali tahlil)

Mezonlar	Uyushmagan yoshlar N=323		Oilali aholi vakillari N=295	
	chastota	%	chastota	%
Psixologik xizmat to‘g‘risida tasavvurga egaman	168	52,02	82	27,79
Psixologik xizmat to‘g‘risida tasavvurga ega emasman	77	23,84	51	17,28
Psixologik xizmat to‘g‘risidagi biror narsa ayta olmayman	78	24,14	162	54,81

Respondentlarning kamchilik qismi shahar hududidan ishtirok etganligini inobatga olgan bo‘lsak-da, psixologik xizmat masalasi bo‘yicha ularning munosabati bir oz ijobiy tusga ega. Biroq, qishloqda yashaydiganlar psixolog xizmatiga zarurat sezsa-da, ammo unga bo‘lgan ehtiyojlarini pinhona tutishlari eksplisit xarakterga ega.

5-jadval

Aholining yashash xududiga ko‘ra psixologik yordamga murojaatiga oid ma‘lumotlar (chastotali tahlil)

Mezon	Yashash xududi			
	Shahar, N=91		Qishloq, N=159	
	chastota	foiz (%)	chastota	foiz (%)
Murojaat qilgan	20	21,97	-	-
Murojaat qilgan, ammo soha mutaxassisiga emas	27	29,67	41	25,78
Hech kimga murojaat qilmagan (bunga ehtiyoj tug‘ilgan bo‘lsa-da)	44	48,35	118	74,22

Qishloq sharoitida solumning fikrlariga doimo alohida e‘tibor qaratiladi va shaxsiy xatti-harakatlarni amalga oshirishda sosial me‘yor vazifasini o‘taydi. Shu bois, psixologik xizmatga murojaat masalasidagi ehtiyojlarni oshkor etmaslik xosdir. Keltirilgan mulohazalarga muvofiq respondentlarning yashash hududi bo‘yicha ko‘rsatkichlarining chastotali tahlilida quyidagicha munosabat mavjud:

Psixologik xizmat yuzasidan murojaat qilgan 21,97%, shaharliklar ulushi bo‘yicha) respondentlar shaharliklar ekan. Qishloq hududida bu hol bilan bog‘liq murojaat kuzatilmadi. Psixologik muammolari bo‘yicha murojaat qilgan, ammo

mutaxassisga emas deb munosabat bildirganlar 29,67 shaharliklarni, qishloqliklarni esa 25,78 tashkil etdi.

Psixologik xizmatga zarurat sezgan, ammo unga murojaat qilmaganlar esa shaharliklarni 48,35% va qishloqliklarni 74, 22 % dan iborat. Bundan ko‘rinadiki, aslida aholining yashash hududi va qatlamining qaysi bosqichida bo‘lishidan qat’iy nazar psixologik muammolarga va uning yechimini topish uchun psixologik xizmat sohalariga zarurat sezadilar.

Orolbo‘yi mintaqasida yashovchi aholi vakillaridan iborat tadqiqot tanlanmasi orqali psixologik xizmatga bo‘lgan ehtiyoj darajalariga aniqlik kiritildi, natijalar 6-jadvalda berilgan.

6-jadval

Orolbo‘yi hududi aholisining psixologik xizmatga ehtiyoji darajalarining chastotali tahlili ko‘rsatkichlari

Psixologik xizmat ehtiyojining me‘yoriy ko‘rsatkichlari	Chastota	Foiz (%)	Psixologik xizmatga ehtiyoj darajalari
5.00	37	5.987	Quyi daraja
6.00	45	7.282	
7.00	57	9.223	
8.00	35	5.663	O‘rta daraja
9.00	27	4.369	
10.00	36	5.825	
11.00	36	5.825	
12.00	67	10.84	
13.00	44	7.12	
14.00	97	15.7	Yuqori daraja
15.00	39	6.311	
16.00	34	5.502	
17.00	31	5.016	
18.00	33	5.34	

Empirik ko‘rsatkichlarning tahliliga ko‘ra, so‘rovnomaning me‘yoriy ko‘rsatkichlariga muvofiq 5 ball - 5,987%, 6 ball - 7,282 %, 7 ball - 9,233 % respondentda psixologik xizmatga ehtiyoj quyi darajada ekanligi kuzatildi. Bu esa umumiy tanlanmaning 22,49 foizini tashkil etmoqda.

O‘rta darajani tashkil etuvchi 8-14 ball oralig‘idagi respondentlarning ulushi ball ko‘rsatkichlari bo‘yicha 8 ball - 5,663%, 9 – ball - 4,369%, 10 ball - 5,825%, 11 ball - 5,825%, 12 ball -10,84%, 13 ball -7,12% va 14 ball -15,7% tashkil etdi. Psixologik xizmatga zarurati o‘rtacha darajada bo‘lgan aholining umumiy miqdori 55,33% dan iborat.

O‘z navbatida respondentlarning psixologik xizmatga ehtiyojlari yuqori bo‘lganlarining ulushini quyidagicha tavsiflash o‘rinlidir: 15 ball -6,311%, 16 ball - 5,502 %, 17 ball - 5,016 % va 18 ball - 5,34% tashkil etdi. Psixologik xizmatga zarurat sezadigan aholining yuqori darajaga moyilligini ifodalovchi respondentlar miqdori 22,16%dan iborat bo‘ldi.

Respondentlarning natijalarini ikki xil talqin qilish mumkin. Psixologik xizmatga bo‘lgan ehtiyojning quyi va o‘rta darajasini umumlashtiradigan bo‘lsak, u holda psixologik xizmatga ehtiyojmand aholi qatlami 77,82 % dan iborat bo‘ladi.

Agar, o‘rta va yuqori ehtiyojmandlarni birlashtiradigan bo‘lsak, u holda 77,49 %ni tashkil etmoqda. Bu natijalar aholining psixologik xizmatga bo‘lgan ehtiyoji ancha yuqori degan xulosani keltirib chiqaradi.

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra Orolbo‘yi mintaqasidagi aholining psixologik xizmatga bo‘lgan ehtiyojini o‘rganishga jalb etilgan aholida psixologik muammolar mavjud va ularning turlari nimadan iborat ekan degan savol tug‘iladi. Ushbu masala ustida tahlilini amalga oshirishdan oldin aholi qatlamining psixologik xizmatga bo‘lgan ehtiyoj qaysi qatlamda ko‘proq ekanligini aniqlashga doir empirik ko‘rsatkichlar aniqlandi. Tadqiqotda jalb etilgan 618 nafar respondentlarning yosh xususiyatlariga ko‘ra ajratilganda 18-24 yoshgacha, 25-30 yoshgacha, 31-35 yoshgacha, 36-40 yoshgacha, 41-45 yoshgacha, 46-50 yosh va 50 yoshdan kattalar tarzdagi yosh kogortga ajratildi. Yosh kogortga ko‘ra aholining psixologik xizmatga bo‘lgan ehtiyojlarini quyidagi tartibda izohlash mumkin. So‘rovnomaning birlamchi natijalarini qayta ishlash jarayonida normal taqsimlanish qonuniga ko‘ra noparametrik xarakterga ega ekan. Shu bois natijalarning matematik qayta ishlashda bir nechta bir-biriga tobe bo‘lmagan tanlanmalar uchun Kraskal-Uollis N-mezonidan foydalanish maqsadli bo‘ldi, natijalar 7-jadvalda berilgan.

7-jadval

Orolbo‘yi mintaqasidagi aholining psixologik xizmatga ehtiyojining yosh kogortiga ko‘ra xolati

Yosh kogortlari	N	O‘rtacha rang	Kraskal-Uollis N-mezoni	r
